



MEHNAT MAROSIM QO'SHIQLARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA MUSIQIY IQTIDOR VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH

Ismoilov Doston Eshmamat o'g'li

Uzun tumani 44-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qatlamlaridan biri bo'lgan mehnat marosim qo'shiqlarining estetik va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda qo'shiqlarning o'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhini mustahkamlashdagi o'rni asoslab berilgan. Termiz tumanidagi 12-umumta'lim maktabi misolida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari orqali mehnat marosim qo'shiqlaridan foydalanishning samaradorligi amaliy jihatdan isbotlangan. Natijalarda o'quvchilarda qo'shiq ijrochiligi, musiqaga qiziqish va ijodiy faollikning sezilarli darajada ortgani qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbek xalq qo'shiqlari, mehnat marosim qo'shiqlari, estetik tarbiya, musiqiy iqtidor, milliy qadriyatlar, tajriba-sinov ishlari, musiqiy ta'lim.*

Abstract. *This thesis analyzes the aesthetic and educational significance of labor ritual songs, which are one of the important layers of Uzbek folk oral art. The study substantiates the role of songs in developing musical abilities in students, forming aesthetic taste, and strengthening the spirit of loyalty to national values. The effectiveness of using labor ritual songs has been practically proven through experimental work conducted on the example of secondary school No. 12 in Termez district. The results showed a significant increase in song performance, interest in music, and creative activity among students.*

Keywords: *Uzbek folk songs, labor ritual songs, aesthetic education, musical talent, national values, experimental work, musical education.*

O'zbek xalq qo'shiqlari xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan og'zaki ijod namunasidir. Ular xalqning o'ziga xos turmush tarzini, ijtimoiy-madaniy hayotini va ruhiy dunyosini aks ettirib, asrlar davomida ma'naviy tarbiya vositasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, mehnat marosim qo'shiqlari xalqning kundalik faoliyati, mehnat jarayonlari va jamoaviy birdamligini ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Ushbu qo'shiqlar insonning tabiat va jamiyat bilan uyg'un munosabatini aks ettiradi, shuningdek, xalqning estetik qarashlarini ham yorqin namoyon qiladi.

Mazkur qo'shiqlar nafaqat badiiy meros sifatida, balki yosh avlodning musiqiy didini shakllantirish, estetik tarbiyasini rivojlantirish va milliy



qadriyatlarga sadoqat ruhida voyaga yetkazishda samarali vosita sifatida qadrlanadi. Shu boisdan folklorshunoslik, musiqashunoslik va pedagogika sohalarida ularni nazariy hamda metodologik jihatdan chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Olimlar bu borada turli fikrlar bildirganlar: masalan, N. Saloxov xalq qo'shiqlari o'quvchilarning san'at asarlarini his etish, ulardan ma'naviy zavq olish va go'zallikka intilishida alohida rol o'ynashini ta'kidlaydi⁶. F. Baltayeva esa maktab darslarida folklor musiqasini o'rgatish uslublari orqali o'quvchilarning ma'naviy va estetik dunyosini boyitish mumkinligini qayd etadi⁷. Shuningdek, Nurullayev folklor qo'shiqlarini tanlab olishda metodik mezonlar muhimligini ta'kidlab, ularning tarbiyaviy salohiyatiga urg'u beradilar⁸.

Xorijiy tadqiqotlarda ham bu masala yoritilgan. Masalan, V. Propp marosim folklorini jamoaviy ong va birlashuv omili sifatida baholagan⁹, Nazarov Farhodjon esa xalq qo'shiqlari o'quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ta'kidlagan¹⁰ \[Nazarov, 2022].

Bizning fikrimizcha, mehnat marosim qo'shiqlari nafaqat milliy badiiy merosning qadimiy qatlamini ifodalaydi, balki zamonaviy ta'lim jarayonida ham faol qo'llanilishi lozim. Chunki ularning ritmik tuzilishi va badiiy matni o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga, estetik tarbiyasini boyitishga va milliy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, ular o'quvchilarda jamoaviy ijodiy faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi, musiqiy madaniyatni shakllantiradi hamda shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fikrlarimizni amaliy tekshirish uchun maktab o'quvchilari o'rtasida tadqiqot olib bordik. Mazkur tadqiqotimiz doirasidagi bir qism natijalarni tahlil etsak.

Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktabining 5-7- sinflariga mo'ljallangan maktab o'quvchilarida musiqiy diagnostikasini olib borish va o'quvchilarda musiqiy iqtidorni oshirishga mo'ljallangan dastur orqali ta'lim berish jarayoniga uyg'unlashgan holda tajriba-sinov dasturi asosida amaliyotga tatbiq qilindi. Tajriba-sinov ishlari asoslovchi, shakllantiruvchi va tasdiqlovchi bosqichlarda tashkil etildi.

⁶ Saloxov, N. M. "Musika ta'limida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy pedagogik ahamiyati." Science and Education. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5645>

⁷ Baltayeva, F. R. "Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida folklor musiqasini o'rgatish uslublari." Science and Education, 2023, 4(6), 622–628.

⁸ Nurullayev, Y. F., & Nurullayev, F. G. "Folklor qo'shiqlarini tanlab olishda qo'yiladigan metodik talablar." Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 2025, 16(3).

⁹ Rahmonov, U. K. "Musika ta'limi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning estetik kompetentligini rivojlantirishda milliy musiqa ohanglarini bola tarbiyadagi o'rni." Oriental Art and Culture, 2023-2024.

¹⁰ Nazarov Farhodjon Allaberdiyevich. (2025). The Role Of Folk Songs In Developing Moral and Artistic Values. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(3).



Mehnat ma'rosim qo'shiqlari orqali mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan bolalarning musiqiy iqtidorini oshirish va ularni estetik tarbiyalash borasida olib borilgan nazariy-uslubiy tahlillar dissertatsiyada ishlab chiqilgan vataklif etilgan tizimning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini asoslashni talab etadi. Ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan asosiy maqsad:

Maktab o'quvchilarida musiqaga bo'lgan iqtidorli bolalarni aniqlash;

Maktab o'quvchilarida musiqaga qiziqishni orttirish va tarbiyalash;

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida estetik tarbiya va madaniy dunyoqarashni rivojlantirishda mehnat marosim qo'shiqlaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish

Musika darslarida maktab o'quvchilari uchun folklor adabiyotlarning chuqur tahlil etilishi hamda folklor yo'nalishidagi olib borilgan ko'p yillik tajriba-sinovlarni umumlashtirish asosida tadqiqotning ilmiy farazi deb, quyidagi fikr-mulohazalarni ilgari surdik. Agar maktab o'quvchilarini o'qitish va musiqa bilan muntazam shug'ullantirishda:

Maktab o'quvchilarining o'smirlik davri inobatga olinsa;

Mehnat marosim qo'shiqlarini o'rgatishdagi tizimli ishlar amalga oshsa;

Maktab o'quvchilarga real holatlardan kelib chiqib alohida yondashilsa;

Tajriba-sinov ishlari 2023- yilda Termiz tuman 12-umumta'lim maktabida maktab o'quvchilari o'rtasida olib borildi. Tadqiqotda 20 nafar o'quvchi tajriba guruhida va 20 nafar o'quvchi nazorat guruhida ishtirok etdilar. Diagnostik tadqiqotlar uchun bir nechta metodikalardan foydalanildi

1. Sinaluvchilarda musiqa qiziqishni kuchaytiruvchi holatlarining yuzaga kelish sababini aniqlash so'rovnomasi

2. Yu.V.Shcherbatix testi asnosida yosh musiqachilarga ishlab chiqilgan test

3. Bolgariyalik taniqli psixolog F. Genov tavsiyalariga asoslangan holda musiqachilarda hissiy-irodaviy sifatlarni yuzaga chiqarish ishlari olib borildi. Tadqiqot kunning ikkinchi yarmida dars mashg'ulotlariga xalal bermagan xolda, yaxshi yoritiladigan sinf xonasida xar bir sinaluvchining aloxida partaga o'tkazilishi asnosidan olib borildi. Ya'ni sinaluvchilar so'rovnomalar, metodikalar borasida o'zaro firk almashmasliklari uchun zaruriy choralar ko'rildi. Ta'kidlash joizki, sinaluvchilarning deyarli barchasi musiqiy diagnostika tadbirlarda ishtirok etishga qiziqish bilan yondashdilar. Quyidagi jadvalda talabalarning tajriba va nazorat guruhlarini kesimida miqdori ko'rsatilgan:

1-jadval. O'quvchilarning tajriba va nazorat guruhlaridagi miqdori.

Tadqiqot o'tkazilgan joy nomi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Ja mi
Termiz tuman 12-umumta'lim maktabida	20	20	40

Tajriba-sinov ishlari 2023- yilda 3 bosqichda amalga oshirildi:


asoslovchi bosqich – tajriba-sinov maqsadi, ilmiy farazi, vazifalari hamda muammolar o'rganilishi natijasida tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi;

shakllantiruvchi – tajriba hamda nazorat qilinuvchi guruhlarda ma'lum dastur asosida tajriba-sinov ishlari bosqichma-bosqich, parallel yoki aralash holatda olib borildi;

tasdiqlovchi bosqich – tajriba-sinov natijalarni statistik tahlil qilindi.

Asoslovchi bosqichda (tashhishlash va muammoni aniqlash) Termiz tuman 12- sonli umumta'lim maktabining yosh musiqachilarni aniqlash va tayyorlash hamda ularning ruhiy holatlarini o'rganib boradigan to'garak hujjatlari, jumladan ishchi o'quv dasturlar, musiqiy metodlari va musiqiy tadqiqot natijalari tahlil etildi. Shundan keyin, o'quvchilarda yuzaga keluvchi qiziqishlarni o'rganish uchun o'qituvchilar va o'quvchilardan anketa so'rovnomasi o'tkazildi(1-ilovada anketa so'rovnomasi hamda to'liq javoblar keltirilgan). So'rovnomada 4 ta o'qituvchi hamda 38 ta o'quvchi ishtirok etdi. Avvalo, o'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomaning diqqatga sazovor joylariga e'tibor qaratsak:


Shu vaqtga qadar sizda musiqaga bo'lgan qiziqishni namoyon qilishga qo'rqish holatlarini yuzaga keltirgan asosiy sababni ayting? – deb berilgan savolga talabalar quyidagicha javob berishdi:



Ko'rib turganimizdek, o'quvchilarda yuz bergan qo'rqish holatlarining asosiy sababi sifatida ovozi musiqaga tushmasligi(28%), keyingi sabab sifatida sinfidagi bolalardan uyalishni keltirmoqda(24). Oilada yuzaga keluvchi muammolar qo'rqishga olib kelgan sabab sifatida talabalarning 16 foizi

keltirgani ularning yosh ekanligidan dalolat beradi. Asosan, oilada yuz beruvchi muammolarning kattalar tomonida hal etilishi, yoshlarni bu hodisalarga aralashtirmasligi bilan asoslanadi. Do'stlar va jamoa bilan aloqalarning buzilishini sabab sifatida atigi 12 foiz o'quvchi ko'rsatgan. Boshqa holatlarni esa 20% o'quvchi sabab sifatida ko'rsatgan. Eng ko'p o'quvchining ovozi musiqaga tushmasligi sabab sifatida ko'rsatish diqqatimizni tortdi. Suhbatlar davomida ushbu holatga oydinlik kiritildi. O'quvchilar bilan ishlash davomida ovozining musiqaga tushirish yuzasidan ishlar qilinmaganligi aniqlandi. Besh oylik ishlarimiz davomida har bir o'quvchi bilan musiqaga ovozini tushirish va qo'shiq kuylash hamda mehnat marosim qo'shiqlari haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

Keyingi savolimiz: Mehnat marosim aytimlarini dars jarayonida kam kuylashga asosiy muammo nima? – deb berilgan savolga bolalarning javoblari quyidagi diagrammada keltirilgan:




Javoblardan ma'lumki, darslikda mehnat marosim aytimlari kamligi deb respondentlarning eng ko'p qismi, yani 30% javob berishgan Bu holatni chuqur tadqiq etishimiz orqali shuni aniqladikki, maktab o'quvchilari bilan mehnat marosim qo'shiqlarini chuqur tahlil qilish va kuylash ishlari tashkil etilmagan hamda yosh musiqaga qiziquvchilar bilan mehnat marosim qo'shiqlari (folklor) musiqaning bir qismi ekanligi, mehnat marosim aytimlari hayotimiz, turmush tarzimiz bilan bevosita aloqador ekanligi, unda tarixiy hayot jarayonlari aks etib turishi haqida tadbirlar amalga oshirilmagan. Tajriba-sinov ishlarimiz davomida o'quvchilar bilan ularning hayotida uchraydigan mehnat marosim aytimlarini o'rganish va kuylash bo'yicha qo'shimcha ishlar olib bordik.

Darslikda nazariy manbalarning ko'pligi deb belgilagan o'quvchilar 20 % ni tashkil etdi. Bu holatda darslikda nazariy manbalarning ko'p emasligi, lekin ularga dars davomida amaliy tarzda ko'proq ma'lumot berish kerakligi va imkon boricha ko'proq shug'ullanish orqali natijaga erishish deyarli tushuntirilmagan. Qolgan javoblar mos ravishda quyidagicha hafta davomida


bir soat dars qo'yilganligi 16%, musiqa asboblarning talabga javob bermasligi 12%, va boshqa holatlar 20%.

Qo'shiq kuylash ishtiyoqingizni so'ndirib, asabiylashtiradigan holatni belgilang? – deb berilgan savolning javoblari quyidagi diagrammamizda keltirilgan:



Ushbu holatda diqqatimizni tortgan jihat o'quvchilarning atigi 2% keltirib o'tilgan holatlar qo'shiq kuylash ishtiyoqini so'ndirmasligini ko'rsatgan. Bu holat hozirgi yoshlarning qiziqqonligi, vaziyatga tez munosab bildirishi, asabiy tarangligini ifodalaydi. Buni bartaraf etish uchun barcha ma'sullar(ota-ona, mahalla, o'quv dargohi, o'qituvchi-murabbiylar, psixologlar) birgalikda shug'ullanishi zarur. Globallashuv davrida internet tarmog'ining cheksiz imkoniyatlari butun dunyo yoshlarida shunday harakterlarni namoyon etmoqda. Shu sababli barcha birday ma'suliyatni o'z bo'yniga olish kerak. Respondentlarning 24%ni internetning sababsiz ishlamay qolishi, kuylash ishtiyoqini o'ldirib, asabiylashtirar ekan. Ushbu javobdan ko'rinib turibdiki, yoshlar uchun hamma narsa o'z vaqtida va tezda amalga oshishi kerak. Ma'lum sabablarga ko'ra internet ishlamasa ularga yoqmas ekan. Bu esa o'z navbatida musiqa ishtiyoqmandiningch kuylashdagi ishtiyoqiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, yosh musiqachini kuylash jarayoniga oldindan ruhan tayyorlash zarur. Hozir keltirilgan holatlarga ham oldindan tayyorlash shart. Qo'shiq mungli va og'ir bo'lishi 26% o'uvchilarimizning kuylash ishtiyoqini so'ndirar ekan. Shunday ekan ularga mehnat marosim qo'shiqlaridan jo'shqin kuylanganlarini ko'proq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Qolgan javoblar quyidagicha: dars va mashg'ulotlarning vaqtini tadbirlar bilan o'tkazgan holatda 20%, do'stingiz siz bilgan narsani sizga o'rgatgan holat 14%, kuylash jarayonida yoningda turgan odam telefonda baland ovozda gaplashsa 14%.

Sizningcha, sizdagi musiqiy bilimlarni qay yo'sinda rivojlantirish mumkin? – deb berilgan savolning javoblari quyidagicha:



Respondentlarning javoblari mos ravishda quydagicha bo'ldi. Ustozimiz tomonidan hafta davomida guruhimiz bilan birgalikda ishlash 18%, ustozimiz tomonidan alohida shug'ullanish 22%, o'z erkimga qo'yish, ortiqcha tavsiyalarsiz rivojlanishim 24%, san'at ustalari bilan bo'lib o'tadigan motivatsion suhbatlar 20%, va boshqa holatlar 16%. Bunda o'quvchilarning o'zlari mustaqil rivojlanishini, tavsiya va maslahatlardan uzoqroq bo'lishini hohlashlarini ko'rishimiz mumkin. Bu holat tabiiy hol hisoblanadi. San'at ustalari bilan o'tadigan motivatsion suhbatlar yosh musiqachilarga kuchli ta'sir qilishini inobatga olgan holda san'at ustalari bilan davra suhbatlari tashkillashtirdik.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mehnat marosim qo'shiqlari o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini boyitish, ularda estetik tarbiyani shakllantirish va milliy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytirishda samarali vositadir. Tajriba-sinov natijalari mehnat marosim qo'shiqlaridan foydalanish o'quvchilarda musiqaga qiziqish va ijodiy faollikni oshirishini tasdiqladi. Shu sababli umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim jarayonida xalq qo'shiqlaridan, xususan mehnat marosim qo'shiqlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu nafaqat musiqiy iqtidorni rivojlantiradi, balki o'quvchilarni milliy merosimizni qadrlashga undaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baltayeva, F. R. "Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida folklor musiqasini o'rgatish uslublari." *Science and Education*, 2023, 4(6), 622–628.
2. Nurullayev, Y. F., & Nurullayev, F. G. "Folklor qo'shiqlarini tanlab olishda qo'yiladigan metodik talablar." *Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi*, 2025, 16(3).
3. Nazarov Farhodjon Allaberdiyevich. (2025). *The Role Of Folk Songs In Developing Moral and Artistic Values*. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(3).
4. Rahmonov, U. K. "Musiqa ta'limi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning estetik kompetentligini rivojlantirishda milliy musiqa ohanglarini bola tarbiyadagi o'rni." *Oriental Art and Culture*, 2023-2024.
5. Saloxov, N. M. "Musiqa ta'limida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy pedagogik ahamiyati." *Science and Education*. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5645>